

## Mehr manbai

Xalqimizning insoniylik fazilatlari, urf-odatlari, qon-qoniga singib ketgan mehr-oqibat, mehrga tashna qalblarga o'zining eng oliy purhikmat so'zlari ila qalblarga iliqlik ulashishi har doim muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

"Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish" kafedrasi assistenti Musayev K. tashabbusi bilan "Qishloq va suv xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish" fakulteti 307-guruh talabalaridan iborat bir guruh yoshlari Toshkent shahrida joylashgan 21-son mehribonlik uyiga tashrif buyurib, ularning holidan xabar olishdi. Tashrif davomida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga K. Musayev va talabalar tomonidan mazmunli davra suhbatি, o'yinlar tashkil qilinib, jazzi kichkintoylarning ko'ngliga ko'tarinki kayfiyat ulashildi. Tashrif so'ngida bolajonlarga talabalar tomonidan tashkil qilingan sovg'alar topshirildi.

Har bir inson hayotda yaxshilik qilish, hojatbarorlik, insonlarni ko'nglini xushnud qilish kabi ijobiy amallari bilan hurmat qozonadi. Mehribonlik uyi rahbariyati institut rahbariyatiga hamda talabalarga minnatdorchilik bildirishdi. Sizlarni ham safimizga chorlaymiz, aziz talabalar!



**"Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish" kafedrasi assistenti Musayev K. axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**